

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**TARIXIY O'LKASHUNOSLIK
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix

Fan/modul kodi TU 1605		O'quv yili 2026-2027	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarixiy o'lkashunoslik		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Ushbu dasturda “Tarixiy o'lkashunoslik” fani predmeti, maqsad va vazifalari, ta'limdagi o'rni, o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy, moddiy va tarixiy manbaalar-yodgorliklarini tarixiy o'lkashunoslikning asosiy manbaalari bo'lgan arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik va muzey eksponatlari orqali o'rganishga qaratilgan. O'zbek xalqining tarixiy, madaniy va me'morchilik yodgorliklari, jahon madaniy me'rosining tarkibiy qismi bo'lib, jahon taraqqiyotiga qo'shilgan g'oyat katta ulushdir. Mana shunday muhim, nodir, qimmatli ahamiyatga molik bo'lgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadigan va tahlil qiladigan fan ham “Tarixiy O'lkashunoslik”dir. Fanning maqsadi: birinchidan, o'z o'lkasining o'tmishi va hozirgi hayoti tarixini har tomonlama ilmiy asosda o'rganish yo'li bilan to'plangan arxeologik, etnografik, toponimik, nodir qo'lyozmalar, arxiv hujjatlarini saralash, tartibga solish va tahlil qilishni; ikkinchidan, to'plangan o'lka materiallaridan o'quv tarbiyaviy ishlarda o'rinni va samarali foydalanib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni ko'zda tutadi. Shu bilan talaba yoshlar ushbu fan bilan tanishish orqali o'zlari yashayotgan o'lka – O'zbekiston haqida, shuningdek, xalq o'tmishi, bugungi hayotiga aloqador muhim ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Go'zal diyorimiz, uning boy o'tmish, mustaqillik davrida amalga oshirilayotgan ko'plab bunyodkorlik ishlarga doir tafsilotlar bilan tanishish orqaligina kishilarda hayotga ishtiyoq, yurtga sadoqat tuyg'ulari shakllanadi. II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: “Tarixiy o'lkashunoslik” faniga kirish. Tarixiy o'lkashunoslikning turlari va rivojlanish bosqichlari. Tarixiy o'lkashunoslik fanining maqsad va vazifalari. Tarixiy o'lkashunoslik shakllanishiga doir dastlabki ma'lumotlar. Tarixiy o'lkashunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixidan kabi mavzular yuzasidan ma'lumotlar beriladi. Fanning predmeti. O'lkani va xalq hayotini, uni eng qadimgi davrlardan				

to hozirga qadar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlanib borishining eng muhim jihatlari, ya'ni: hududda ilk odam zotining paydo bo'lishi va makonlarni, ulug', qabilalarini, shuningdek, elat, millat, halqning shakllanishi va rivoji bilan bog'liq etno-madaniy jarayonlarni, qishloq, shahar, davlatlarning rivojlanishi, buyuk tarixiy siymolar va xalq qahramonlari, ularning Vatan ravnaqidagi o'rini, tarixiy yodgorliklar va joy nomlari bilan bog'liq o'lka toponimikasini, mustaqillikka erishuv va ilk davrdagi amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini, shuningdek, mamlakatimizda turizmning vujudga kelishi, rivoji va istiqbollarga qadar bo'lgan masalalarni o'z ichiga qamrab olgan.

Fanning vazifasi. Tarixiy o'lkashunoslikning 5 ta asosiy manbasi bo'lib, ular: arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik va muzey ekponatlaridan iborat. Bu fan orqali esa o'lka va xalq hayotini, uni eng qadimgi davrlardan to hozirga qadar har tomonlama rivojlanib borishining eng muhim jihatlari yuqorida qayd etilgan 5 ta asosiy manbalar orqali tatqiq etilishi berilgan bo'lib, talaba yoshlarni ular bilan yaqinroq tanishtirishga e'tibor qaratilgan.

2-mavzu: O'lkamizning tarixiy geografik o'rni

O'lkamizning qadimgi davr tarixiy geografiyasi. Kidariylar, xioniylar, eftaliylar, Turk xoqonligi va arablar davri tarixiy geografiyasi. Somoniylar, qoraxoniylar va mo'g'ullar bosqini davri tarixiy geografiyasi. Amir Temur va shayboniylar davri tarixiy geografiyasi. Xonliklarning ma'muriy-hududiy bo'linishi, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi boshqaravi davridagi tarixiy geografiyasi. O'zbekistonning tabiiy geografik tavsifi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi.

O'zbekiston Yevrosiyo materigining markazida, geografik o'rni jihatidan hududning ikki yirik daryosi bo'lmish Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Mamlakatimizning shimoliy chekka nuqtasi Ustyurt platosining shimoli-sharqiy qismida, (45°36' shim. kenglik), janubiy chekka nuqtasi Termiz shahrining janubida (37°11' shim. kenglik) joylashgan. Garbiy nuqtasi Ustyurt platosining 56°00' sharqiy uzoqligida, sharqiy nuqtasi Farg'ona vodiysining Qirg'iziston bilan chegaradosh qismida (73°10' sharqiy uzoqlik) joylashgan.

3-mavzu: Tarixiy o'lkashunoslikning asosiy manbalari

O'lkashunoslikda arxeologiyaning tutgan o'rni

Tarixiy o'lkashunoslikning manbalari. Tarixiy, geokosmografik hamda biografik asarlar. O'lka tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati.

Tarixiy o'lkashunoslik fanining 5 ta asosiy manbasi bulib, ular: arxeologiya, etnografiya, toponimika, arxivshunoslik va muzey eksponatlaridan iborat. Ular o'zaro bog'langan bo'lib, biri – birisiz o'lkani, xalq xayotini mukammal o'rganib bo'lmaydi.

“Arxeologiya” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “arxayos”- qadimgi,

“logos” - fan, ya’ni qadimgi davrni o’rganuvchi fan degan ma’noni bildiradi. Arxeologiya – o’lkashunoslik va tarix fanlarining asosiy manbalaridan biridir. Dunyo xalqlarining bir necha yuz ming yillaridan beri davom etib kelayotgan tarixi bor. Arxeologlar qazishma usuli bilan ish ko’radilar. Ayniqsa yozuvlar paydo bo’lmasdan burungi davr tarixini arxeologiya qazishmalarida topilgan buyumlar to’ldiradi, (arxeologiya qazishmasining natijalari matbuotda keng yoritib boriladi).

O’zbekistonda arxeologik tekshirishlar XIX asrning oxirgi choragida, turkistonni Rossiya bosib olganidan so’ng boshlandi. Rossiya imperiyasi Turkistonning o’tmishi, xalqning urf odati, qadimiy qo’lyozmalarini o’rganish orqali o’lkada o’zining mustamlakachilik rejimini mustahkamlamokchi edi. Turkiston osori atiqalarini o’rganishni dastavval rus xavaskorlari va o’lkashunoslari boshlab berdi. 1895 y.V.V Bartoldning tashabbusi bilan Turkiston arxeologiya xavaskorlari to’garagi tuzilib, ishlari shu to’garak nazoratida olib boriladi. Usha davrda o’tkazilgan tadqiqotlarida V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiyning xizmati katta bo’ldi.

B.P.Denike qadimiy Termizni (1926-27), M.E.Masson Ohangaron vodiysini (1925-28), Ayritom xarobalarini (1932-33), A.Yu.Yakubovskiy Zarafshon vodiysida (1934,1939), M.E.Masson qadimgi Termizda (1936-38), V.A. Shishkin Tali Barzuda (1936-39), Varaxshada (1937-39), S.P.Tolstov, Ya.G.Gulomov qadimgi Xorazm voxasida (1937-50), A.P.Okladnikov Teshiktosh va Machay g’orlarida (1938-39), V.V.Grigorev Kovunchitepa xarobalarida (1934-37) olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari. Pomir Oloy va Pomir Farg’ona ekspedisiyalari.

O’zbekiston F.A Arxeologiya institutining tashkil etilishi (1970) O’zbekistonda arxeologik tadqiqotlarni yanada kengayishi. Mustaqillik davrida O’zbekistonda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning asosiy natijalari.

4-mavzu: Tarixiy o’lkashunoslik va etnografiya.

Etnografiya tushunchasi haqida. O’lka tarixini o’rganishda dastlabki etnografik ma’lumotlar. O’zbekistonda etnografiya fanining rivojlanishi tarixi. O’zbek urug’ va qabilalari to’g’risidagi ma’lumotlar. Qadimgi va o’rta asrlarda yaratilgan manbalarda etnografik ma’lumotlar.

“Etnografiya” (“etnos” – “xalq”, “grafo” – “yozish”)- xalq haqidagi fan bo’lib, u xalqni o’rganuvchi, ta’riflovchi fan yoki xalqshunoslik fani deb ham yuritiladi. Bu fan ayrim vaqtlarda “Etnologiya” (lotin tilida “etnos” – xalq, “logos”- so’z, tushuncha, farqlash) deb ham ataladi. Ba’zi olimlar etnografiya bilan etnologiya o’rtasida ma’lum darajada chegara borligini ta’kidlaydilar. Ba’zi olimlar esa buni inkor etadilar. Aksincha, bu ikki fan o’rtasida hech qanday chegara yo’q, balki ularning biri ikkinchisini to’ldiradi, izohlaydi.

Etnografik bilimlar qadim zamonlardan paydo bo’lgan bo’lsada, lekin mustaqil fan sifatida XIX asrning o’rtalarida shakillanib bo’ldi. Dastlab, bu

atamani XVI asrning ohirida nemis yozuvchisi I. Zummer ishlatgan, keyin esa XVIII asrning oxirlarida va 1808 yillarda maxsus jumallar shu nom bilan chika boshlagan. E. Suuzi mashxur fransuz tabiatshunosi va fizigi Jan Jak Amper taklifi bilan Parij antropologlari kongressida aloxida fan sifatida qabul qilingan (1839.) .

O'zbekistonda etnografiya fanining rivojlanishi tarixi.

Mustaqillik va o'zbek xalqi etnografiyasi. O'zbek xalqi to'g'risida etnografik ma'lumotlar. O'zbek xalqining urf odatlari an'analari haqida.

5-mavzu: Yozma manbalarda O'rta Osiyo o'lkashunosligiga oid ma'lumotlar

Ahamoniylar davri yozma manbalarda. Qadimgi Yunon va Rim manbalari. Xitoy manbalari. IX-XII asrlar tarixiga oid Arab tilida yozilgan manbalar. XIII-XIV asrlar tarixiga oid fors tilidagi tarixiy manbalar. Turkiyadagi tarixiy manbalar.

Tarixni o'rganish uchun yozma yodgorliklarning guvohligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbot talab etmaydi. Ayniqsa, qadimiy davrlarga oid yozma ma'lumotlar uzoq o'tmish haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun muhimdir. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari haqida Ahamoniy podsholarining qoya toshlarga bitilgan bitiklarida ham tegishli ma'lumotlar uchraydi. O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlar, kiyim-kechagi va ko'p qirrali hayoti haqida qiziqarli materiallar yunon mualliflari va Xitoy yozma manbaalarida ko'proq uchraydi. Bulardan tashqari arxeologik izlanishlar davomida turli davr va yillarda topilgan mahalliy aholining xorazmiy, bohtariy, sug'diy va "noma'lum yozuv" deb atalmish yozma manbaalari ham borki, ular qisqa va kam bo'lishidan qat'iy nazar, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek etnogenezi uchun noyob ma'lumotlar beradi. Arab, fors va turk yozma manbalarida ham o'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi uchun qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

1. O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqida ilk yozma manbalar.
2. O'rta Osiyoning qadimgi tarixini Xitoy manbalarida yoritilishi
3. O'rta Osiyoning qadimgi aholisi haqida yunon-rim mualliflari
4. O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari etnik tarixining mahalliy va ahmoniy podsholari yozma manbalarida aks etishi.
6. Arab tilida yozilgan manbalar.
7. XIII-XIV asrlar tarixiga oid fors tilidagi tarixiy manbalar.
8. Turkiy tilda yozilgan manbalar.

6-mavzu: Tarixiy o'lkashunoslikni rivojlantirishda arxivshunoslikning o'rni.

Tarixiy o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv manbalarining ahamiyati. Qadimgi va o'rta asrlar davri arxivlari. Mustaqillik davridagi arxiv hujjatlari. Arxiv hujjatlarini hisobga olish, saqlash va ularning foydalanish to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

Arxiv – bu idoralar, korxona va tashkilotlar, shuningdek tarixiy shaharlar ayrim holarda fuqorolarning faoliyatiga oid hujjatlar saqlanadigan muassasa hisoblanadi. O'lkani tarixini o'rganishda unda saqlanayotgan materiallarning ahamiyati juda katta.

Arxiv so'zi – hujjat asrov ma'nosiga ega bo'lib, lotincha «archivum» – hujjatlar saqlanadigan joy ma'nosini anglatadi.

Arxiv hujjatlari yozma va og'zaki shakllarda mavjud. Og'zaki tarixiy hujjatlar har xil texnika vositalari bilan yozib yoki tasvirlab olinadi. Hujjatlar maxsus joylarda, ya'ni arxivlarda soxalarga ajratilgan xronologik sanalarga, qimmat va ahamiyatiga qarab tartibga solingan holda saqlanadi.

Toshkentda joylashgan O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi (O'z RMA)da saqlanayotgan qimmatbaho hujjatlarning soni va mohiyatiga ko'ra O'rta Osiyodagi hamdo'stlik davlatlari Markaziy davlat arxivlari ichida eng yirigi hisoblanadi. Undagi hujjatlar o'z tartibiga ko'ra bo'limlardan, ular esa boblardan, boblar – fond (jamlanma) lardan fondlar ham alohida hujjat (ish) birliklaridan iborat qilib tizimlashtirilgan bo'lib, ulardan foydalanishga qulaylik yaratilgan.

7-mavzu: Tarixiy o'lkashunoslikda muzey eksponat (material)lari va o'lkashunoslik to'garaklari

Muzeylar – tarix ko'zgusi. Muзей turlari. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati.

O'lkashunoslik manbalari orasida muzeyning o'rin va ahamiyati katta. U moddiy va manaviy madaniyat yodgorliklarning asl nusxalarini, arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid materiallarni to'playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o'rganib tahlil qiladi, natijalarini esa ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi.

Yig'ilgan va muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning faoliyatida asos bo'lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot, madaniy – ma'rifiy hamda ta'lim – tarbiya ishlarini olib boradi.

Muzeylarni tarix ko'zgusiga qiyoslashadi. Ular nafaqat o'tmishni muayyan darajada aks ettiruvchi oyina, balki o'zidagi mavjud ma'lumot – materiallar asosida mamlakatimizda kechayotgan bugungi o'zgarish jarayonlari haqidagi tasavvurlarimizni yaqqolroq namoyon bo'lishiga xizmat qiladigan tabarruk dargohlardir.

Muzeylarni qisqacha ta'riflaydigan bo'lsak, muzeylar (yunoncha musion – muzalarga bag'ishlangan joy, muzeylarning dastlabki vatani Qadimgi Yunoniston bo'lib, bu erdagi Gelikon tog'i atrofiga muzalarga bag'ishlab har besh yilda bir marta bayramlar o'tkazilib, unda shoirlar, rassomlar va haykaltaroshlarning o'zaro musobaqalari bo'lib turgan. (O'ljaeva Sh, Muzeyshunoslik, T, "Universitet", 2002 yil)) – tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga

oshiruvchi ilmiy, ilmiy – ma’rifiy muassasalar hisoblanadi. Muzeylarda, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san’at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo’lgan tarixiy qimmatga ega qo’lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblari), raqamli ma’lumotlar, diagramma, jadvallar, foto tasvir, fono yozuv va xronik kinofilm kabi narsalar saqlanadi.

O‘zbekistonda muzeylarning rivojlanishi. O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi – O‘zbekiston Fanlar akademiyasining yirik ilmiy – tadqiqot va madaniy – ma’rifiy muassasalaridan biri.

Muzey ekspozitsiyasi – muzey kommunikatsiyasining asosiy shakli bo‘lib hisoblanadi. Vaqtincha ekspozitsiya – muzey ko‘rgazmasi ham bo‘lishi mumkin. Ko‘rgazmalar – ma’lum siyosiy voqealarga, yubiley larga atab tashkil etiladi. Hozirgi davr to‘g‘risida ma’lumot beradi.

9-mavzu: Toponimika – tarixiy o‘lkashunoslik va turizmning asosiy manbalaridan biri.

O‘zbekiston toponimikasiga oid atamalarning yozma manbalarda qayd etilishi. O‘zbekistonda toponimik tadqiqotlar tarixi. Toponimik ma’lumotlar to‘plash uslublari. Toponimikada antroponimlarning o‘rni. Respublika viloyatlari joylarining toponimikasi. Toponimikaning xronologik davrlarga bo‘lib o‘rganilishi. Toponimikaning bo‘limlari: gidronimika, oykonimika, oronimika, urbanomika, etnonimlar, patronimlar, xronimlar, zoonimlar, religionimlar, teonimlar va boshqalar.

Toponomikani “Zamin tili” deb atashadi. Toponomika-termini lotin tilidan olingan bo‘lib, “topos” joy va “anoma” yoki “onima” nom, umuman, joy nomini o‘rganadigan fan, degan ma’noni bildiradi. Geografik nomlar va zamin qa’rida yotgan, o‘rganilmay yotgan nomlar, insonlarga qo‘yilgan ismlar, toponomikani o‘rganish manbai hisoblanadi. Geografik terminlar toponomika shtabiga kirmaydi. Ammo ular toponomikani o‘rganishda katta ahamiyatga egadir. Nomsiz “Obyekt” toponim emas. Toponomika geografik ob’ektlarni emas, balki ularning nomlarini o‘rganadi. Toponimlar bir vaqtning o‘zida tilshunoslik tarixiy va geografik faktlar hisoblanadi.

10-mavzu: Farg‘ona vodiysi toponimlari va madaniy meros yodgorliklari.

Andijon viloyati 1941 yilda tashkil etilgan. Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan.

Andijon viloyati maydoni nisbatan kichik, lekin aholisi zich joylashgan viloyatdir. Uning maydoni Respublika hududining 1 % ini egallasada, bu erda O‘zbekiston aholisining qariyb 10% yashaydi.

Andijon - shahar, Andijon viloyatin markazi. X asrdan boshlab arab geograflari Istaxriy, Ibn Havkal, Muqaddasiy asarlarida va boshqa manbalarda Andiyon, Andikon, Andukon, Zahiriddin Bobur asarlarida Andijon deb yozib kelinadi. Viloyatning qisqacha toponimik lug‘ati va madaniy meros yodgorliklari.

Namangan viloyati respublikaning sharqiy, Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Tarkibida 11 qishloq tumani (Kosonsoy, Mingbuloq, Chortoq, Chust, Namangan, Norin, Pop, To'raqorg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on), 8 shahar (Namangan, Kosonsoy, Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust, Haqqulobod), 12 shaharcha (Jomasho'y, Ittifoq, Navbahoq, Oltinkon, Oqtosh, Toshbuloq, Uychi, Uyg'ursoy, Chorkesar, O'nhayot, Halqabod, Yangiqo'rg'on). Mamuriy markazi – Namangan shahri. Viloyatning qisqacha toponimik lug'ati va madaniy meros yodgorliklari.

Farg'ona viloyati mamlakatimizning sharqida, Farg'ona vodiysining janubiy qismida joylashgan. Tarkibida 15 qishloq tumani (Bog'dod, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Yoziyovon, Oltiariq, Oxunboboev, Rishton, So'x, Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, O'zbekiston, Quva), 9 shahar (Beshariq, Marg'ilon, Rishton, Farg'ona, Yaypan, Quva, Quvasoy, Qo'qon, Xamza), 10 shaharcha (Bog'dod, Dang'ara, Do'stlik, Yoziyovon, Muqumiy, Oltiariq, Toshloq, chimyon, Sho'rsuv Yangi Mang'ilon) bor. Ma'muriy markazi - Farg'ona shahri. Viloyatning qisqacha toponimik lug'ati va madaniy meros yodgorliklari.

11-mavzu: Toshkent viloyati va Toshkent shahri toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.

Toshkent viloyati Respublikaning shimoli -sharqida joylashgan. Shimol va shimoli - g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, shimoli- sharqdan Qirg'iziston Respublikasi, Sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi, janubi – g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Tarkibida 15 tuman (Bekobod, Bo'ka, Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rtacha Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq) mavjud.

Toshkent vohasining eng qadimiy nomi Choch (Chochiston) ilk bor 262 yilda Eron podshosi Shopur II ning "Zardusht Kaabasi" toshida qayd etilgan: ayni vaqtda Toshkent vohasini o'rab turgan tog'lar ham Choch deb atalgan (Choch arab manbalarida Shosh shaklini olgan). Shahar va regionning Toshkand deb atala boshlaganiga X asrdan oshdi. Choch milodning dastlabki asrlarida Qang' (Qanguy) davlati tarkibiga kirgan, bir necha asr davomida esa eftalitlar davlati tarkibida bo'lgan: VI-asr oxirlarida Turk xoqonligi eftalitlarni tor-mor qilib, Movaraunnahr bilan birga Chochni ham o'z tasarrufiga oladi.

Yozma manbalarida Toshkent shahri va viloyati haqidagi ma'lumotlar ikki ming yildan ortiqroq davrni o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi Sharq manbalarida Toshkent vohasi Yuni deb atalgan va Qang'uy davlati tarkibiga kiradi deb yozilgan. Vohaning markazi ham Yuni shahri deb nomlangan.

12-mavzu: Sirdaryo va Jizzax viloyatlari toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.

Sirdaryo viloyati shamolidan Qozog'iston Respublikasi, shaklan toshkent viloyati, janubidan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Tarkibida 8 tuman (Boyovut, Guliston, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sardoba, Sirdaryo, Xovos), 5 shahar (Guliston, Dehqonobod, Do'stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos) bor. Markazi – Guliston shahri.

Jizzax viloyati 1973 yil tashkil etilgan. Respublikaning markaziy qismida joylashgan. Tarkibida 12 qishloq tumani (Arnasoy Baxmal, Do'stlik, Zarbdor, Zafarobod, G'allaorol, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Forish, Yangiobod); 7 shahar (Gagarin, Dashtobod, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, G'allaorol); 8 shaharcha (Bo'ston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Usmat, Uchquloq, Yangiqishloq, Qo'shtosh)bor. Ma'muriy markazi-Jizzax shahri.

13-mavzu: Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari toponimlari.

Madaniy meros yodgorliklari.

Samarqand viloyati respublikaning markaziy qismida joylashgan. Tarkibida 14 tuman (Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Poyariq, Pastarg'on ,Paxtachi , Samarqand, Toyloq, Urgut, Qo'shrobot), O'nbir shahar (Samarqand bulung'ur jomboy,juma, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Mirobod, Oqtosh, Poyariq, Urgut) O'nikki shaharcha (Daxbet, Ziyoviddin, Ingichka, Kimyogarlar,loish, Mitan, Mirbozor, Payshanba, Suv hovuzi , farxod, Xishrof, Charxin). Mamuriy markazi- Samarqand shahri

Navoiy viloyati 1982 yil 20 aprelda tashkil etilgan. Tarkibida 8 qishloq tumani (Karmana, Konimex,

Navbahor, Nurota, Tomdi, Uchquduq, Xatirchi, Qiziltepa), 6 shahar (Zarafshon, Karmana, Navoiy, Nurota, Uchquduq, Qiziltepa), 8 shaharcha (Konimex, Langar,Malikrabod, Muruntov, Tinchlik, Shalqar, Yangirabod, G'ozg'on) bor.Ma'muriy markazi – Navoiy shahri.

Buxoro viloyati - maydoni jihatidan mamlakatdagi eng katta viloyatlardan. O'zbekistonning markaziy va janubi-g'arbiy qismlarida joylashgan. Tarkibida 11 qishloq tumani (Buxoro, Bobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako'l, G'ijduvon), 11 shahar (Buxoro, Bobkent, Gazli, Galaosiyo, Kogon, Olot, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Qoravulbozor, G'ijduvon), 3 shaharcha (Jondor, Zafarobod, Yangibozor). Ma'muriy markazi – Buxoro shahri.

Buxoro – O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri, Buxoro nomi ilk bor yunon astronomi Klavdiy Ptolomeyning "geografiya" asarida (II asr) uchraydi. Tojikistondagi Mug' tog'idan topilgan sug'd hujjatlarida (VIII – asr boshlarida) esa Puxar shaklida tilga olingan.

14-mavzu: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimlari.

Madaniy meros yodgorliklari.

Qashqadaryo viloyati maydoni jihatidan Respublikada yirik viloyatlardan biri. Viloyat Respublikaning janubi – sharqida, Qashqadaryo

xavzasida joylashgan, sharqidan Hisor va Zarafshon tizmalari o'rab turadi. Tarkibida 13 qishloq tumani (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Yangi Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamishi, Qarshi, G'uzor), 12 shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimarjon, Yangi Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), % shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Nuriston, Eski Yakkabog', Qashqadaryo) bor. Ma'muriy markazi – Qarshi shahri. tarixiy yodgorliklari.

Surxondaryo viloyati tarkibida 14 qishloq tumani (Angor, bandixon, boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi, Qiziriq, Qumqo'rg'on), 8 shahar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi, Qumqo'rg'on), 7 shaharcha (Angor, Do'stlik, Kakaydi, Sariosiyo, Sariq, Elbayon bekati, Hurriyat) bor. Markazi- Termiz shahri.

Madaniy meros yodgorliklari: Qirqqiz qal'asi, Jarqo'rg'on minorasi, Iskandar ko'prik, Termiziy majmuasi, Sulton Saodat majmuasi.

15-mavzu: Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat. O'zbekiston hududining shimoli-g'arbida, Amudaryoning quyi qismida, Orol dengizining janubiy sohilida joylashgan. Respublika tarkibida 15 tuman (Amudaryo, Beruniy, Bo'zatov, Kegeyli, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, Qanliko'l, Qorao'zak, Qo'ng'iro't), 12 shahar, 17 shaharcha bor. Poytaxti-Nukus shahri. Qoraqalpog'iston toponimlari va tarixiy yodgorliklari.

Xorazm viloyati mamlakatning shimoli-g'arbida joylashgan, qadimiy sug'orish madaniyatiga ega bo'lgan ko'hna viloyatlardan. Tarkibida 10 qishloq tumani (Bog'ot, Gurlan, Urganch, Xiva, Xonqa Shovot, Yangiariq, Yangibozor, Qo'shko'pir, Xozarasp): 3shahar (Pitnak, Urganch, Xiva): 7shaharcha (Gurlan, Xonqa,Chalish, Shovot, Yangibozor, Qo'shko'pir, Xozarasp) bor. Ma'muriy markazi-Urganch shahri. Xorazm viloyati toponimlari. Xorazm tarixiy yodgorliklari va obidalari.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Tarixiy o'lkashunoslik" faniga kirish. Tarixiy o'lkashunoslikning turlari va rivojlanish bosqichlari. O'lkamizning tarixiy geografik o'rni.

2. Tarixiy o'lkashunoslikning asosiy manbalari. O'lkashunoslikda arxeologiyaning tutgan o'rni.
3. Mamlakatimizdagi ibtidoiy va qadimgi davrning o'rganilishi. O'lkamiz o'rta asrlar va yangi davrining o'rganilishi.
4. Paleoantropologik ma'lumotlarning O'lka tarixini o'rganishdagi ahamiyati
5. O'rta Osiyo aholisi foydalangan qadimgi yozuvlar va ularning xususiyatlari.
6. Tarixiy o'lkashunoslikda etnografiyaning ahamiyati.
7. Tarixiy o'lkashunoslikni rivojlantirishda arxivshunoslikning o'rni.
8. Tarixiy o'lkashunoslikda muzey eksponat (material)lari va o'lkashunoslik to'garaklari.
9. Toponimika – tarixiy o'lkashunoslikning asosiy manbalaridan biri.
10. Farg'ona vodiysi toponimlari va madaniy meros yodgorliklari.
11. Toshkent viloyati va Toshkent shahri toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.
12. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.
13. Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.
14. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.
15. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati toponimlari. Madaniy meros yodgorliklari.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Muzey turlari. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeylar.
2. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.
3. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashkil etilgan muzeylar va ularning faoliyati.
4. O'lkashunoslik turlari va Tarixiy O'lkashunoslikning rivojlanishi
5. O'rta Osiyo tarixini o'rganishda rus Sharqshunoslarining roli
6. Rus Sharqshunosligining mahalliy tarixchilikka ta'siri
7. Tarixiy o'lkashunoslikning 1917 yildan keyingi ahvoli
8. O'lkashunoslikning asosiy manbalari

9. O'ika tarixini o'rganishda arxeologik ma'lumotlarning ahamiyati.
10. O'zbekistonda arxeologiyaning rivojlanishi.
11. Ibtidoiy jamoa davri va Ona urug'ining rivojlanishi
12. Kaltaminorliklar chaylasi
13. Qadimgi davr yodgorliklari
14. Ilk o'rta asr yodgorliklari.
15. Rivojlangan o'rta asrlar yodgorliklari.
16. Ahamoniylar davri yozma manbalarda.
17. Qadimgi Yunon va Rim manbalarining o'lkashunoslik fanidagi o'rni
18. Xitoy manbalarining o'lkashunoslik fanidagi o'rni
19. IX-XII asrlar tarixiga oid arab tilida yozilgan manbalarining o'lkashunoslik fanidagi o'rni
20. XIII-XIV asrlar tarixiga oid fors tilidagi tarixiy manbalarining o'lkashunoslik fanidagi o'rni
21. Turkiy o'zbek tilidagi tarixiy manbalarining o'lkashunoslik fanidagi o'rni
22. O'zbek xalqi to'g'risidagi etnografiyaga oid dastlabki ma'lumotlar
23. O'zbek etnografiyasi tarixiy o'lkashunoslik fanidagi o'rni
24. "XIV-XVI asrlarda madaniyatning rivojlanishi" mavzusini o'tishda etnografiyaga oid ma'lumotlardan foydalanish uslublari.
25. O'ika tarixini o'rganishda toponimikaga oid ma'lumotlar.
26. Toponimikaning asosiy bo'limlari va ularning mazmuni
27. Toshkent vohasi toponimikasi.
28. Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimikasini o'rganish.
29. Samarqand viloyati toponimikasi va uni o'rganish.
30. Xorazm viloyati toponimikasi.
31. Farg'ona vodiysidagi qishloq, shahar nomlarining kelib chiqish tarixi.
32. O'lkashunoslikni rivojlantirishda arxivshunoslikning o'rni.
33. Muassasa va davlat arxivlarining o'lkashunoslik fanidagi o'rni
34. Muzei turlari. Turkistonda tashkil etilgan dastlabki muzeilar.
35. O'zbekistonda 1917-1990 yillarda tashkil etilgan muzeylar faoliyati.
36. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashkil etilgan muzeilar va ularning faoliyati.

3.	VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: “Tarixiy o'lkashunoslik” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba: - tarixiy o'lkashunoslikning o'rganilishi va uning ahamiyati, “Tarixiy o'lkashunoslik” fanining boshqa fan sohalari bilan bog'liqligi hamda ta'lim jarayonida o'rganilishining ahamiyati to'g'risida bilimga; - talaba mustaqil ish va arxeologik amaliyot jarayonida arxeologiya yodgorliklarini tashqi ko'rinishiga qarab, ularning turlari va tiplarini aniqlay olish ko'nikmsiga; - tarixiy manbalarda o'lkamiz tarixiga oid ma'lumotlarni tahlil etish, dala tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida tarixiy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil etish, toponomik ma'lumotlarni o'z pedagogik faoliyatida ulardan samarali foydalana bilish malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur.
6.	X. Asosiy adabiyotlar: 1. Аҳмедов В. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. -Т., 1991. 2. Бо'риев О. Janubiy O'zbekiston aholisi etnik tarixidan // Tarix, mustaqillik, mlliy g'o'ya. - T., 2001. 3. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. -Т.: Оикитувчи5 1994. 4. Кабиров А., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. -Т., 1990. 5. Набиев А. Тарихий ўлкашунослик. -Т., 1996. 6. Ochildiyev F.B. Tarixiy o'lkashunoslik. -Т., 2020. 7. Salimov T. Jahon xalqlari etnologiyasi. –Т., 2019. XI. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. – Т., 1964. 2. Shoniyozov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.-Т., 2001.

	3. Kuryazova D.T. O'zbekistonda muzey ishi tarixi. - T., 2010. 4. Bekmurodov M, Rashidova M. Muzeysunoslik. -T., 2006. 5. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. -T., 1994. Axborot manbalari www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali) www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti) www.edu.uz (O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali) www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi) www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ 29 ” <u>avgust</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: Sh.B.Jumayeva CHDPU, “O'zbekiston tarixi” kafedrasi dosenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD).
9.	Taqrizchilar: Q.Matxoliqov– O'zMU, “Jahon tarixi” kafedrasi dotsenti O.H.Jaynarov –CHDPU, “O'zbekiston tarixi” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD).